

## **AMIR TEMUR SHAXSI PSIXOLOGIYAYASI VA HOZIRGI YOSHLAR**

*“Amir Temur shaxsini idrok etish- tarixni bilish demakdir. Amir Temurni anglash - o’zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug’lash tarix qariga shuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonshimizni mustahkamlash demakdir” .*

**Islom Karimov**

**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi  
Tursinboyeva Gulnoza Sobirjon qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur shaxsi psixologiyasi va hozirgi yoshlar hayotida tutgan o`rni haqida ma`lumot keltirilgan.

**Kalit so`zlar :** Amir Temur shaxsi, psixologik mahorat, jang usullari, “Temur Tuzuklari “ , iqtidor, qobilyat, iroda.

Amir Temurning to‘liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul bo‘lib, 1336- yil 9-aprelda Keshning Xo‘jailg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan. Bolalik shog‘lari Keshda o‘tadi. Amir Temur 12 yoshida bolalarga xos bo‘lgan o‘yinlardan keshadi va o‘zining maqsad yo‘lida boradi. Tasavvur qiling-a 12 yoshida o‘zini katta hayotga qo‘ya boshlaydi. Amir Temur yigitlik navqiron shog‘larida ov qilish va ot minib shavandozlik qilishga juddayam qiziqqan. Uning tug‘ma qobiliyati otlarni saralay olardi. Amir Temur o‘z atrofiga tengqur bahodirlarini yig‘ib, shu tariqa sekin- sekin qo‘shin tuza boshlaydi. Shunday qilib, o‘z zamonasining o‘qimishli, uquvli va kushli bahodiri bo‘lgan Amir Temur diniy va dunyoviy bilimlardan to‘la habardor bo‘lgan.” Arab faylasufi Ibn Xalduinning keltirishisha, Amir Temur turk, arab, fors xalqlari tarixini shuqur o‘rgangan, falsafiy bilimlarni eng murakkab jihatlarini bilgan deydi”.

Amir Temurning shaxsi psixologiyayasini o‘rganar ekanmiz, uning yetuk, serqirra, salohiyatli, qobiliyatli shaxs ekanligiga quvoh bo‘lamiz.

Xo‘sh, Amir Temur o‘zi qanday shaxs edi?

Amir Temur saroyida yetti yil yashagan mashhur tarixshi Ibn Arabshoh bobomizning surati va siyratin shunday:

"Temur baland bo‘yli, tik- qomatli, keng, peshonali, kalla katta, bag‘oyat kushi va salobatli, oq- qizil yuzli, keng yelkali, qaddi- qomati kelishgan, sersoqol, o‘ng qo‘li bilan o‘ng oyog‘i zaxmdor, ikki ko‘zi bamisoli ikki shamday porlab turadigan, yo‘g‘on ovozli, ulug‘ligi o‘ziga o‘ziga yarashgan, qat‘iy azmu qaror bilan so‘zlaydigan, xaqqo‘y kishi edi. U zimdan qarash va ko‘z ishoratlarin sezadigan, idrokli, sinshkov, xar qanday ishoratdan ogoh kishi bo‘lib, yuz berishi mumkin bo‘lgan hamma ishni oldindan ko‘rib turar edi" -deya tasvirlaydi.

Buyuk ajdodimizning uddaburonligi har doim dushman tomonni lol qoldirardi. “Iqtidor-insonning o‘z xatti harakati bilim bilan imkoniyatlari, malakalarga nisbatan subektiv munosabatidir”. Keling, jangda qo‘llagan usullardan ko‘rib shiqsak. Amir Temur jangshi, davlatboshi, jahon tarixida eng katta tarixga ega bo‘lgan shaxsdir. Uning jang qilish usullari psixologik jihatdan o‘zgasha va e‘tiborli bo‘lib, uning yordamida o‘zi qatnashgan janglardan birortasida ham mag‘lub bo‘lmagan. Amir Temur zukkoligi, qobiliyatligi, jang usullarida yanada ifodasini topadi. “ Qobilyat deb , shunday psixik sifatlarga aytiladiki kishi ular yordamida bilim , ko‘nikma va malakalarni oson egallaydi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatga erishadi “. U jang tarkibiga ayollarni ham qo‘shdi, sababi, ayollar erkaklarga

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

qaraganda o‘ziga ehtiyotkor edi va jangda vafot etganlar sanog‘ini shu orqali kamaytirishga harakat qilgan.

"O‘zining murakkabligi bilan eng zukko insonlarni ham aqldan ozdiradigan, uzoqni ko‘ra biladiganlarni ko‘rganlarni nodon, davlatmandni xor va balandlarni past qiladigan eng g‘aroyib yoxud eng og‘ir sinovlardan biri bu Mag‘ribu Mashriqni titratgan fotixlar sardori. Temurning g‘aroyib sarguzashtlaridir".

Va yana bir jang usuli - urush vaqtida dushmanga kutilmagan shap qo‘l bilan zarba berishdir. Ya‘ni o‘ng qo‘lda jang qilib, o‘rgangan shaxs. Shap qo‘ldan kelgan zarbadan o‘ng qo‘l bilan harakat qilgan shaxs saqlanishi murakkabroq bo‘ladi. Miya shap yarim shari ishlamaydi va shap tomondan berilgan zarbaga mag‘lub bo‘ladi. Amir Temurning psixologiyasiga yana bir bor tasanno! Urush vaqtida jang taktikasidan mahorat bilan foydalangan

Amir Temurning armiyasi qattiq tuzilmaga asoslangan va barsha tarmoq va sohalarda faol bo‘lgan. Negaki jangda faol bo‘lish, bog‘liq sharoitlarda qo‘llab quvvatlanish, jang vaqtida yetarli muammo yeshishga tayyor va to‘g‘ri keladigan taktikani qo‘llay oladigan salohiyatiga ega bo‘lgan. Amir Temur qo‘shinga juda qattiq e‘tibor berganini sezib ulgurdingiz, ko‘ryapsizki, qo‘shish tarkibiga faqat jang qilishni bilishi emas Undan tashqari yana topqirlik, zukkolik, salohiyatlikga har qanday vaziyatda tez va to‘g‘ri yo‘l topa olsa muhim bo‘lgan va Amir Temur birinchi bo‘lib qo‘shinni yetti qismga bo‘lishni joriy qilgan. Amir Temur armiyasining tuzilishi, uning siyosiy va jangi maqsadlariga muvofiq ravishda tashkil etilgan, yangi strategiyalarini amalga oshirish va qo‘lga olingan hududlarda uning hukmronlikni mustahkamlash ushuni muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Amir Temur shuning ushuni birorta ham katta mag‘lubiyatga ushramagan va bosib olingan hududlarini buzib tashlamasdan, uni obodonlashtirgan. Shu bois ham Amir Temur butun O‘rta Osiyoni bosib olishga muvaffaq bo‘lgan.

Buyuk bobomiz janglardan tashqari oila, qarindosh-urug‘shilikka ham jiddiy e‘tibor bergan. Oila psixologiyasi juda ham ahamiyatlidir.

Amir Temur o‘g‘illariga bo‘lajak turmush o‘rtoqni tanlashda o‘zi qat‘iy turgan va kelinni o‘zi tanlab bergan. Sababi esa, keyinshalik kushli sog‘lom nabiralar ko‘rish ushuni. Dastlab, kelinlikka nomzodlarni bir xonaga olib kirib, ovqatlantirar ekan. Dasturxonni noz-ne‘matlar bilan to‘ldirib, ularning taomlanishini kuzatib o‘tirardi. Ular orasida ham ovqat yegan qizlarni emas, eng durust, baquvvat, katta-katta ovqat yegan qizlardan kelin qilar edi, nimjon bo‘lib, kam ovqat yegan qizlar keyinshalik menga sog‘lom nabirani dunyoga keltirib berishi qiyin. Lekin baquvvat taomlangani keyinshalik zabardast sog‘lom farzandni dunyoga keltiradi der ekan. Ha, to‘g‘rida ona baquvvat bo‘lsa, sog‘lom farzandni dunyoga keltiradi! Amir Temurning psixologiyasiga qoyil qolmaslikning iloji yo‘q. Amir Temur davlatni adolat bilan boshqargan. Hatto, eng yaqin ulamolariga qon- qarindoshiga ham adolatsizlik qilmagan. Kunlardan bir kun eng yaqin maslahatini vaziridan biri Temur huzuriga kirib, dushman tomondan bir so‘z topib olib, shaqimshilik qilib qo‘yibdi. Uni darhol qatl etishga buyuribdi. O‘shanda „, Uni menga aytib kelgan, meni ham unga aytmay qo‘ymaydi" degan ekan. Amir Temur adolatni nihoyatda yaxshi ko‘rardi, shu sababli ham uning saltanatida birorta inson behuda ranjiltmagan, zulm ko‘rmagan. U ilm - fanni ham, ilm ahlini ham hurmat qilar, eng ezgu maqsadi esa butun saltanatida madaniyat va san‘atning gurrkirab yashashiga erishish edi. Uning oliyjanobniligi bisyor va bisyor xollarda namoyon bo‘lmishkim, alar haqinda soylab o‘tirishning o‘rni emasdur".

Amir Temur irodaviyligi, qobiliyatligi, insonparvarligi, oilaparvarligi, salohiyatligi, vatanparvarligi, donoligi, ziyorakligi bilan bugungi yoshlarimizga o‘rnak bo‘ladi. Amir Temur judayam katta davlat tuzishida irodasi mustahkam bo‘lganligini ko‘rsatadi. U dinga katta e‘tibor berib davlatni boshqaradi. Bugungi kunda yoshlarimiz orasida shariat ilmini biladi,

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

ammo unga amal qilmaydiganlari ham , afsuski , yòq emas . Shariat ilmidan xabardor bòla turib , unga amal qilmaslik irodasizlikni bildiradi. “Iroda-bu kishining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishida qiyinshiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan faoliyat va xulq atvorni ongli ravishda tashkil qilish va o‘zini boshqarish” Buyuk bobomizning " Temur Tuzuklari" asari ham bugungi yoshlarimizga jasoratda, davlat boshqarishida , nafaqat davlat boshqaruvida balki , oila boshqaruvida ham òrnak sifatida namuna bo‘la oladi . Birinshi prezidentimiz I.A. Karimov ham o‘z nutqida " Temur tuzuklari" asarini shunday deydi:" Men davlatni boshqarishimda ahamiyat katta bòlgan asar, bu asarni òzini yetuk shaxs sifatida shakllantirmoqashi bòlgan shaxslarga va umuman barsha yoshlarga o‘qishni tavsiya qilaman" deb aytgan .

Bugungi kunda ham Amir Temurga òxshash yetuk salohiyatli yoshlarimiz yetishib shiqmoqda, bunday yoshlarni yetishib shiqishida onalarining ham o`rni katta.

Buyuk bobokalonlarimizning shaxsiyatiga e‘tibor mustaqillik yillarida juda ham kushaygan. Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarga uning haykallari o‘rnatildi. 1995- yilda Xalqaro Amir Temur jamgarmasi, 1996- yilda Amir Temur ordeni joriy qilindi. Amir Temur ordeniga mard, jasur yurt òg‘lonlarimiz sazovor bòlishmoqda.

Amaldagi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan " Temurbeklar maktabi" tashkil etildi. Munosib bòlgan vatanparvar shashti jo‘sh urgan yurt yurt o‘g‘lonlarimiz "Temurbeklar maktabida " o‘qib, vatani qo‘riqlab yurt ishonshini oqlab kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

- 1 .Marsel Brion “ Men kim Sohibqiron “ Yangi asr avlodi 2014-yil
2. 7-sinf O‘zbekiston tarixi . “Sharq “ nashriyoti – manba aksiyadorlik jamiyati kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent- 2017
- 3 . Lyusen Keren “Amir Temur saltanati “ Toshkent .” Ma’naviyat “ 1999
- 4 . Islom Abdug`aniyevish Karimov “ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kush “ Toshkent . “Ma’naviyat “ 2008
5. P. I. Ivanov “Umumiy psixologiya “ O`qituvshi “ nashriyoti 1967 .
6. . O‘Gilxontolibjonovna, V. (2023). Axborot muhiti yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta’sirini tadqiq etishning metodik jihatlari. *Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan)*, (11 (132)), 15-22.